

PEDAGOG KADRLAR MASALASI VA GENDER TENGLIK**Sevara Yo'ldashova Nuraddinovna****UrDPI talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.1418047>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogning maqomi to'g'risidagi qonunning mazmun-mohiyati, pedagogning jamiyat va yoshlar ta'lif-tarbiyasidagi o'rni shuningdek pedagogic faoliyatda gender tenglik masalari ham yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, pedagogning huquqlari, pedagogning majburiyatları, gender tenglik, ayollar huquqlari.

Yoshlar ta'lif va tarbiyasini pedagog faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning turli sohalari rivojlanishini ta'minlash yetuk mutaxassislarga bogliq bo'lgan. Soha mutaahasislarini tayyorlashda pedagoglarning o'rni katta. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak dastlab pedagog tushunchasi Yunonistonda paydo bo'lganligi barchamizga ma'lum. Uning assosiy vazifasi bolani yo'lda kuzatib borish bo'lgan, vaqt o'tgach bu tushuncha ta'lif va tarbiya beruvchi shaxslarga nisbatan ishlash odad tusiga kirgan .Pedagog barcha davrlarda eng ulug' zot bo'lgan, ammo so'nggi davrlarda pedagog shaxslarni o'z kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган turli ishlarga jalb qilish(obodonlashtirish, paxta yig'im-terimi, turli tadbirdorda fon) ta'lif-tarbiya borasidagi asosiy vazifalaridan uzoqlashtirdi, oxir-oqibat jamiyatda yetuk kadrlar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Pedagog kadrlar masalasi va gender tenglik, ta'lif tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ikki muhim unsurdir.

Kadrlarni tanlash va malaka oshirish shuningdek, O'qituvchilarini tanlash jarayoni, ularning malaka oshirish, ta'lif beradigan soha bo'yicha bilimlari va ko'nikmalariga asoslangan bo'lishi kerakligini hisobga olsak bugungi kundagi yurtimizdagi pedagogik jarayonlar yanada yaxshi yo'lda qo'yilganligini bilib olishimiz mumkin. O'qituvchilarining sifatli tayyorgarligi ta'lif sifatini bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar shuningdek O'qituvchilarining sharoitlari, ish haqi va ijtimoiy maqomi ham pedagog kadrlar masalasida ahamiyatli hisoblanadi. Yaxshi sharoitlar va ko'proq motivatsiya o'qituvchilarining ishga nisbatan yondashuvini o'zgartiradi.

Pedagogika sohasida gender tenglikni ta'minlash, ayollar va erkaklarning teng ishtirokini ta'minlash muhimdir. O'zbekistonda ko'pincha ayollar ta'lif tizimida ko'pchilikni tashkil etadi shuning uchun, ushbu sohada ayol va erkak o'qituvchilarining teng imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Bu borada ham yurtimizda keng qarovali islohotlar amalga oshirilmoqda jamiyatda ayolning rolini kuchaytirish, ayollarning pedagogik sohadagi o'rni va vakilligi kuchayishi, gender tenglikni ta'minlashga ko'maklashadi. Bu, shuningdek, kelajak avlodlarga ayollar uchun karera va ta'lif imkoniyatlarini namoyish etish maqsadida ham muhimdir.

Gender stereotiplarini yengish: Ta'lif tizimida gender stereotiplarini kamaytirish, ayollarning va erkaklarning o'zlarini bir-biriga teng ko'rishlariga yordam beradi. Bu o'z navbatida ta'lif jarayonida har bir shaxsning potentsialini to'liq amalga oshirishiga yordam beradi. Pedagog kadrlar masalasi va gender tenglik bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida ta'lif tizimining sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning birgalikdagi rivoji orqali ta'lif muassasalari yanada barqaror va samarali bo'lishi mumkin. Gender tenglikni ta'minlash, nafaqat o'qituvchilar uchun, balki barcha o'quvchilar uchun ham foydali bo'ladi, chunki bu ularga turli qarashlar va fikrlar bilan tanishish imkonini beradi.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lif tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lif va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir.

Ma'lumki, murakkab o'tish yillarda maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lif texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi.

Keyingi yillarda ana shu muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan xalq ta'lifi tizimiga oid 10 dan ortiq farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi.

Bugungi kunda xalq ta'lifi tizimidagi ta'lif muassasalarida mehnat qilayotgan 502687 nafar pedagog xodimlardan 158720 nafarini rahbar xodimlar, jumladan, 10130 nafar maktab direktorlaridan 6716 nafarini, 14178 nafar direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rribosarlaridan 7513 nafarini, 13590 nafar direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rribosarlaridan 8145 nafarini, 207 ta tuman (shahar) xalq ta'lifi bo'limi mudirlaridan 168 nafarini, 14 ta hududiy xalq ta'lifi boshqarma boshliqlaridan 10 nafarini erkaklar tashkil etadi.

Ta'lif-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o'qituvchilarning alohida o'rni va ta'siri borligi hisobga olinib, ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'lifi tizimiga 12871 nafar erkak o'qituvchilar qaytgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" dagi Farmoniga muvofiq 2021-yil davomida xalq ta'lifi tizimidagi 5984 nafar shundan 1779 nafar erkak xodimlarni sanatoriylarda dam olishlari uchun bepul yo'llanmalar beriladi.

Mazkur dam olish sanatoriylarida xodimlar oshqozon-ichak kasalliklari, ortiqcha tana vaznining oshishi (metabolik sindrom), qandli diabet, oshqozon osti bezi kasalliklari, o't qopi, oshqozon yarasi, asab tizimi, yurak qon tomir, jigar, surunkali buyrak, tayanch-harakat a'zolari, asab, ovqat hazm qilish a'zolari va ginekologik, nafas olish, yuqori nafas yo'llari va nevrologik, urologik, endokrinologik kasalliklar, qon aylanish tizimi a'zolari, teri tanosil va boshqa xastaliklarni davolash va profilaktika qilish bo'yicha muolajalar olib qaytdi.

Joriy yilning iyun-avgust oylarida jami 2 ming nafar o'qituvchilarga sanatoriylarda dam olish uchun bepul yo'llanmalar berish nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lif darjasini yuqori bo'lмаган maktablarga malakali o'qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida 2021-yil 15-oktyabrdagi qaroriga muvofiq 1167 nafar pedagog xodimlar ta'lif darjasini yuqori bo'lмаган maktablarda ta'lif berish uchun boshqa hududlardan jalb etilgan. Birgina misol tariqasida Andijon viloyatidan 7 nafar pedagoglar Xorazm viloyatidagi, Namangan viloyatidan 33 nafar pedagoglar Farg'ona viloyatidagi, Jizzax viloyatidan 44 nafar pedagoglar Sirdaryo viloyatidagi maktablarga yo'naltirilgan. Mazkur qarorga asosan bir hududdan boshqa bir hududga qatnab ishlayotgan pedagog xodimlarga 50 foizdan 100 foizgacha ustamalar berib kelinmoqda. Shuningdek, 21 nafar erkak pedagog xodimlarga "Xalq ta'lifi a'lochisi" 4 nafariga "Xalq ta'lifi fidoyisi" ko'krak nishonlari topshirildi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi 901-sonli Qonuni // <https://lex.uz/docs/-6786401>
3. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/4084.htm>
4. <file:///C:/Users/ADMIN/Downloads/Xalq%20so'zi%20gazetasi-28-2024-02-07.pdf>